SUD- TIBBIY EKSPERTIZA MUASSASALARIDA KOMISSIYA EKSPERTIZA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Kurbanov Anvar Alamovich – assistent
Rasulova Muyassar Mirzamurod qizi – magistrant
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqola tadqiqoti sud tibbiy ekspertiza muassasalarida komission ekspertiza faoliyatining tashkiliy, huquqiy va metodologik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda komission ekspertizalarning samaradorligi, ekspertlar kasbiy tayyorgarligining holati, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va tashkiliy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, komission ekspertiza jarayonlarini standartlashtirish, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda ekspertlar malakasini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Xalqaro tajriba o'rganilgan holda milliy amaliyotga moslashtirilgan yechimlar taklif etiladi. Olingan natijalar asosida sud- tibbiy ekspertiza tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *sud- tibbiy ekspertiza, komission ekspertiza, tashkiliy masalalar, ekspertlar malakasi, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro tajriba, standartlashtirish, nazorat mexanizmlari.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОМИССИОННОЙ ЭКСПЕРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЧРЕЖДЕНИЯХ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Курбанов Анвар Аламович – ассистент
Расулова Муяссар Мирзамурод кизи – магистрант
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению организационных, правовых и методологических аспектов деятельности комиссионной экспертизы в учреждениях судебно-медицинской экспертизы. В работе анализируется эффективность комиссионных экспертиз, состояние профессиональной подготовки экспертов, возможности использования современных технологий и организационные проблемы. Также разрабатываются предложения по стандартизации процессов комиссионной экспертизы, совершенствованию контрольных механизмов и повышению квалификации экспертов. С учетом изучения международного опыта предлагаются решения, адаптированные к национальной практике. На основе полученных результатов даются научно-практические рекомендации по совершенствованию системы судебно-медицинской экспертизы.

Ключевые слова: судебно-медицинская экспертиза, комиссионная экспертиза, организационные вопросы, квалификация экспертов, современные технологии, международный опыт, стандартизация, контрольные механизмы.

IMPROVEMENT OF COMMISSION EXPERT ACTIVITY IN FORENSIC MEDICAL EXAMINATION INSTITUTIONS

Kurbanov Anvar Alamovich – assistant
Rasulova Muyassar Mirzamurod kizi – master's student
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract: *This scientific article is devoted to the study of organizational, legal, and methodological aspects of commission expert activities in forensic medical examination institutions. The paper analyzes the effectiveness of commission examinations, the state of professional training of experts, the potential for using modern technologies, and existing organizational challenges. Proposals are also developed for the standardization of commission examination processes, the improvement of control mechanisms, and the enhancement of expert qualifications. Taking into account international experience, solutions adapted to national practice are proposed. Based on the results obtained, scientific and practical recommendations are provided for improving the system of forensic medical examination.*

Keywords: *forensic medical examination, commission examination, organizational issues, expert qualification, modern technologies, international experience, standardization, control mechanisms.*

Kirish. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi mamlakatda huquqiy davlat qurish va sud-huquq tizimini isloh qilish davrida sud tibbiy ekspertiza tizimining, xususan komission ekspertiza faoliyatining muhim ahamiyati bilan bog'liq. Ma'lumki, sud tibbiy ekspertiza xulosalari jinoiy, fuqarolik va ma'muriy ishlarni ko'rishda hal qiluvchi dalillardan biri hisoblanadi va sud qarorlarining asosliligi hamda adolatliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda sud tibbiy ekspertiza muassasalarining faoliyati asosan murakkab tibbiy-huquqiy holatlarni ko'rib chiqishga, komission ekspertizalar o'tkazishga va ekspertiza xulosalarining sifatini oshirishga qaratilgan.

So'nggi yillarda komission ekspertizalarni keng miqyosda o'tkazish tajribasi shuni ko'rsatadiki, sud tibbiy ekspertiza muassasalarining resurs, texnik jihozlanish va kadrlar imkoniyatlari har doim ham rejalashtirilgan ekspertizalar hajmiga va murakkablik darajasiga mos kelmaydi. So'nggi 10-15 yil ichida zamonaviy sharoitda komission ekspertiza faoliyatini tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kamdan-kam hollarda o'tkazilmoqda. Shu qatorda, zamonaviy sharoitda sud tibbiy ekspertiza muassasalari faoliyatida komission ekspertiza jarayonlarini takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini joriy etish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Sud tibbiy ekspertiza muassasalarida komission ekspertiza faoliyatini takomillashtirishda tashkiliy masalalarni o'rganish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:1.Samarqand viloyatida sud tibbiy ekspertiza muassasasini faoliyatining 2023-2024 yillardagi tahlili.

2.Tashkiliy masalalar va ularning ekspertiza sifatiga ta'sirini baxolash.

3.Sud tibbiy ekspertiza muassasalarida komission ekspertizaning mavjud holatini o'rganish.

4.Komission sud tibbiy ekspertizalarni o'tkazishda klinik bazalardagi mutaxasisilar va surishtiruv-tergov xodimlariga tayinlashda maxsus algoritm ishlab chiqish.

5.Ekspertiza jarayonida qo'llaniladigan standart va pratakillarni takomillashtirish.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot materiallarini yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish jarayonida zamonaviy sud tibbiy ekspertiza o'tkazishni takomillashtirish,xodisa-nazorat,retrospektiv,statistic,ekspert baholash usullari qo'llaniladi.

Ilmiy yangilik. Komission ekspertiza faoliyatini takomillashtirish uchun tashkiliy struktura va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish. Bu, resurslarni yanada samarali taqsimlash va ekspertlar o'rtasida rollarni aniq belgilashga yordam beradi.Sud tibbiy ekspertizasi sohasidagi etika va qonunchilik talablariga rioya qilishni ta'minlash uchun yangi standartlar va qoidalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki komission ekspertizalar-tibbiyot xodimlarining kasb huquqbuzarliklari bo'yicha, mehnat qobiliyatini turg'un yo'qotilishini, salomatlik holatini va yoshni aniqlash hamda alohida murakkab holatlarda o'tkazilishini takomillashtirishda tashkiliy masalalar.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Tadqiqotda sud tibbiy ekspertizasi bilan bog'liq qonunchilik va normativ hujjatlarni tashkil qilish, ularning amalda qo'llanilishi va takomillashtirish zarurati haqida fikr yuritish mumkin.Bu tadqiqotning nazariy ahamiyatini yanada oshiradi.

Komission ekspertiza faoliyatini takomillashtirish uchun tashkiliy masalalarni aniqlash. Komission sud tibbiy ekspertiza – bu bir xil yoki turli mutaxassislik bo'yicha ikki va undan ortiq ekspertlar tomonidan o'tkaziladigan murakkab ekspert tadqiqotidir. Bunday ekspertizalar, odatda, tibbiy-biologik va huquqiy jihatdan murakkab holatlar, oldingi ekspertiza xulosalariga e'tirozlar yoki tergov va sud organlarining maxsus talablari asosida tayinlanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida Samarqand viloyati sud tibbiy ekspertiza muassasasida komission ekspertiza faoliyatining hozirgi holati tahlil qilindi. Tadqiqot maqsadi – tashkiliy masalalarni aniqlash, ularning sabablari va oqibatlarini o'rganish hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob'yekti sifatida H.Sulaymonova nomidagi Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Samarqand viloyat filiali tanlab olindi. Tadqiqot 2023-2024 yillar mobaynida olib borildi.

Quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi:

Hujjatlar tahlili – muassasaning tashkiliy-shtat tuzilmasi, normativ-huquqiy hujjatlar, ichki nizomlar;

Statistik tahlil – kadrlar ta'minlanganlik, ish yuklamasi, ekspertizalar soni va muddatlari;

Ekspert so'rovnomasi – 28 nafar sud tibbiy ekspert o'rtasida o'tkazildi;

Chuqur intervyu – 7 nafar rahbar va tajribali ekspertlar bilan;

SWOT-tahlil – ichki va tashqi omillarni baholash uchun.

H.Sulaymonova nomidagi Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Samarqand viloyat filiali Samarqand viloyati hamda 14 ta tumanlar va Kattaqo'rg'on shahrida sud tibbiy ekspertiza xizmatlarini tashkil etadi. Muassasa 2024 yil holatiga ko'ra quyidagi tarkibiy bo'limlarga ega (1-jadval):

1-jadval.


Samarqand viloyati sud tibbiy ekspertiza muassasasining shtat tuzilmasi (2024 yil)

Bo‘lim/Lavozim	Shta birliklari	Band etilgan
Tibbiy muassasa boshqarma	3.0	1.5
Ambulatoriya bo‘limi	14.5	7.25
Morfologiya bo‘limi	59.75	44.5
Qayta va komission ekspertizalar bo‘limi	6.0	4.5
Tezkor ekspert xizmati (BNS)	9.5	4.0
Laboratoriya (biolog)	15.5	10.0
Laboratoriya (kriminalist)	15.5	7.75
JAMI (markaziy filial)	123.75	79.5

Manba: Muassasa kadrlar bo‘limi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qayta va komission ekspertizalar bo‘limi uchun 6 nafar shtat birligi belgilangan, lekin hozirgi vaqtda faqat 4.5 nafar (75%) band etilgan. Bu 1.5 nafar shtat birligining bo‘sh ekanligini ko‘rsatadi.


H. Sulaymonova nomidagi Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Samarqand viloyat filiali Samarqand viloyati hamda 14 ta tumanlar va Kattaqo‘rg'on shahrida sud tibbiy ekspertiza xizmatlarini tashkil etadi. Muassasa 2024 yil holatiga ko‘ra quyidagi tarkibiy bo‘limlarga ega. Qayta va komission ekspertizalar bo‘limining kadrlar ta’minlanganlik holati 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. **Samarqand viloyati sud tibbiy ekspertiza muassasasi kadrlar tahlili (2024 yil)**

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, qayta va komission ekspertizalar bo‘limi uchun 6 nafar shtat birligi belgilangan, lekin hozirgi vaqtda faqat 4.5 nafar (75%) band etilgan. Bu 1.5 nafar shtat birligining bo‘sh (25%) ekanligini ko‘rsatadi va kadrlar yetishmasligi muammosining mavjudligidan dalolat beradi.

2024 yilda Samarqand viloyat filiali tomonidan jami 18,742 ta sud tibbiy ekspertiza o‘tkazilgan bo‘lib, ulardan 892 tasi (4.8%) komission ekspertiza sifatida amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkich oxirgi 3 yilda barqaror o‘sish tendentsiyasiga ega (2-rasm).



2-rasm. **Komission ekspertizalar sonining dinamikasi (2022-2024 yillar)**

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlar ko‘rsatadiki, komission ekspertizalar soni har yili o‘sib bormoqda: 2022 yilda 764 ta (4.2%), 2023 yilda 831 ta (4.5%), 2024 yilda 892 ta (4.8%). Bu sud-huquq tizimida murakkab ishlarning ortib borayotganligi va komission ekspertizalarga bo‘lgan talabning kuchayayotganidan dalolat beradi.

2024 yilda Samarqand viloyat filiali tomonidan jami 18,742 ta sud tibbiy ekspertiza o‘tkazilgan bo‘lib, ulardan 892 tasi (4.8%) komission ekspertiza sifatida amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkich oxirgi 3 yilda barqaror o‘sish tendentsiyasiga ega:

2022 yil – 764 ta (4.2%);
2023 yil – 831 ta (4.5%);
2024 yil – 892 ta (4.8%).

Komission ekspertiza faoliyatini takomillashtirish. Komission ekspertiza faoliyatini takomillashtirish uchun eng avvalo ekspertiza jarayonlarini standartlashtirish, aniq amaliyot mexanizmlari joriy etish va samarali nazorat tizimini yaratish zarur. Quyida ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi.

Hozirgi kunda komission ekspertizani tayinlash va o‘tkazishda yagona standart yo‘q. Har bir ekspert o‘z tajribasiga asoslanib harakat qiladi. Bu esa xulosalarda farqlanish, vaqt yo‘qotish va xatolarga olib keladi.

Taklif: Komission ekspertiza uchun bosqichma-bosqich standart protokol ishlab chiqish va joriy etish.

Xulosa: Mazkur ilmiy maqolada sud tibbiy ekspertiza muassasalarida komission ekspertiza faoliyatining tashkiliy, huquqiy va metodologik jihatlari kompleks tarzda o‘rganildi hamda Samarqand viloyati sud tibbiy ekspertiza muassasasi misolida amaliy tahlillar olib borildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda komission ekspertizalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bo‘lib, bu murakkab tibbiy-huquqiy holatlar sonining ko‘payishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlillar davomida komission ekspertiza faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy muammolar-kadrlar yetishmovchiligi, ish yuklamasining ortishi, yagona standartlarning mavjud emasligi hamda tashkiliy koordinatsiya kamchiliklari aniqlanib, ular ilmiy asosda baholandi. Xususan, qayta va komission ekspertizalar bo‘limida shtat birliklarining to‘liq band etilmaganligi hamda ekspertizalar sonining yildan-yilga ortib borayotgani tizimda qo‘shimcha yuklama yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari komission ekspertiza jarayonlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Jumladan, ekspertiza jarayonlarini standartlashtirish, yagona metodologik protokollarni joriy etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda ekspertlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish zarurligi asoslab berildi.

ADABIYOTLAR

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. Forensic Medicine and Sciences. – URL: https://www.who.int/health-topics/forensics (kirish sanasi: 15.01.2025)

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy veb-sayti. – URL: https://www.minzdrav.uz (kirish sanasi: 18.01.2025)

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 265-son "Sud tibbiy ekspertiza xizmatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi qarori. – www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2015-yil 23-martdagi 85-son "Sud tibbiy ekspertiza muassasalarida komission ekspertiza o‘tkazish tartibi to‘g‘risida"gi buyrug‘i.

5. Акопов В.И. Судебная медицина: Учебник. – 3-е изд. – Москва: Юрайт, 2019. – 399 с.

6. Pigolkin Yu.I., Dubrova E.A. Sudebnaya meditsina: natsionalnoye rukovodstvo. – Moskva: GEOTAR-Media, 2019. – 728 s.

7. Методические рекомендации по организации и производству комиссионных судебно-медицинских экспертиз. – Москва: РЦСМЭ, 2019. – 64 с.

8. Порядок организации и производства судебно-медицинских экспертиз в государственных судебно-экспертных учреждениях Российской Федерации. Приказ Минздравсоцразвития РФ от 12.05.2010 № 346н.

9. Романько Н.А. Комиссионная судебно-медицинская экспертиза при расследовании профессиональных правонарушений медицинских работников. Автореферат диссертации кандидата медицинских наук. – Санкт-Петербург, 2019. – 24 с.